

*Alieva Mahbuba Toychiyeva –  
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti i.f.d., professor,  
Xamidova Mo`tabarxon Abdumalik qizi -  
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti magistratura talabasi*

## YANGI O'ZBEKISTON IQTISODIYOTINI RIVOJLANTIRISHDA MEHMONXONA XIZMATLARINING AHAMIYATI

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasi rivojlanishining so'nggi besh yilidagi mehmonxonalar xizmatlarining o'sishi, iqtisodiyotning ushbu sohasidagi asosiy muammolar, pandemiya davrida sanoat rivojlanishini saqlashning asosiy mezonlari mavjud statistika asosida tahlil qilingan.

**Kalit so'zlar:** Turizm, mehmonxona, yalpi ichki mahsulot, pandemiya, turistik, rentabellik, xona zaxirasi, o'sish, statistika.

## РОЛЬ ГОСТИНИЧНЫХ УСЛУГ В РАЗВИТИИ НОВОЙ ЭКОНОМИКИ УЗБЕКИСТАНА

**Аннотация.** В данной статье анализируется рост гостиничных услуг за последние пять лет развития Республики Узбекистан, основные проблемы в этом секторе экономики, основные критерии поддержания развития отрасли в период пандемии на основе имеющейся статистики и исследования.

**Ключевые слова:** Туризм, гостиница, валовой внутренний продукт, пандемия, турист, рентабельность, номерной фонд, рост, статистика.

## THE ROLE OF HOTEL SERVICES IN THE DEVELOPMENT OF THE NEW UZBEK ECONOMY

**Annotation.** This article analyzes the growth of hotel services in the last five years of development of the Republic of Uzbekistan, the main problems in this sector of the economy, the main criteria for maintaining the development of the industry during the pandemic on the basis of available statistics and research.

**Key words:** Tourism, hotel, gross domestic product, pandemic, tourist, profitability, hotel room fund, growth, statistics.

Globalashuv davrida tez sur'atlar bilan rivojlanayotgan yer kurrasida xizmat ko'rsatish sohalari dunyo iqtisodiyotining asosiy bo'g'iniga aylanib bormoqda. Jahon iqtisodiyotida yalpi ichki mahsuloti (YaIM)ning 10%i, umumiy eksport hajmining 7% turizm xissasiga to'g'ri kelmoqda[1]. Butunjahon turistik tashkilotining ma'lumotiga ko'ra, sohaga umumiy investitsiyalarning yetti foizi, soliq tushumlarining besh foizi va jami xizmatlarining uchdan bir qismi to'g'ri keladi. Mehmonxona xo'jaligi sohasi salohiyatini kengaytirish, jahon bozori va iste'molchilarni turizm mahsulotlariga jalb etish milliy iqtisodiyotining zarur omillaridan biri hisoblanadi.

Mehmonxona xo'jaligi turizm sohasining tarkibiy qismi hisoblanib, turizmning rivojlanishi mehmonxona xizmatlarining sifatini oshirib borishni talab etadi. Jahon amaliyoti ko'rsatishicha, turizm umumiy iqtisodiy o'sishga, kam taraqqiy etgan hududlarning rivojlanishiga ko'maklashadi. Tog' va qishloq joylarida turistik markazlarining tashkil qilinishi shu joylarning o'zlashtirilishiga, aholi yashash darajasining yaxshilanishiga yordam beradi.

Yil sayin turizm mamlakatimizda sezilarli iqtisodiy o'sishga ega bo'lib bormoqda. 2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasining III bobida iqtisodiyotni rivojlantirish va liberallashtirishning ustuvor yo'nalishlari belgilangan bo'lib, buning uchun bel-

gilangan chora tadbirlar qatorida "turizm industriyasini jadal rivojlantirish, iqtisodiyotda uning roli va ulushini oshirish, turistik xizmatlarni diversifikatsiya qilish va sifatini yaxshilash, turizm infratuzilmasini kengaytirish" besh yillikning asosiy ustuvor masalalaridan biri sifatida belgilandi. 2017-2020-yillarda bevosita mehmonxona xizmatini takomillashtirish va tartibga solishga yo'naltirilgan 5 ta normativ-huquqiy xujjat qabul qilindi. Buning hosilasi sifatida shuni aytish mumkinki, besh yillik taraqqiyot ko'zlangan Harakat strategiyasi qabul qilingan dastlabki davr - 2017-yilda turizm sohasi 143,4%ga o'sgan. Ammo, mehmonxona xo'jaligining rivojlanishi turizmga nisbatan bir muncha orqada qolib, ayni yilda sohadagi o'sish 115,3 %ni tashkil qildi. Bundan ko'rinib turibdiki, O'zbekistom Respublikasida barcha xizmatlarning o'sishiga nisbatan (125,4%) turizm xizmatlari ko'p bo'lgan[10].

Bundan tashqari olimlarning ma'lumotiga ko'ra, mamlakatimiz YaIMda turizmning ulushi 2011-yilda 1,8 foizni tashkil qilgan bo'lsa, 2018-yilga kelib bu ko'rsatgich 2,3 foizga ko'tarilgani qayd etiladi. Lekin, ushbu soha taraqqiy etgan dunyo mamlakatlarida ushbu ko'rsatgich ancha yuqori hisoblanadi. Xususan, Ispaniyada 12 foizni, Misr Arab Respublikasida 10 foizni, Gretsiyada 8 foizni, Germaniya federativ Respublikasida 8 foizni, Fransiyada 6-7 foizni, Singapurda 5 foizni, Belgiya va AQSh kabi mamlakatlarda esa 3 foizni tashkil qiladi.

2020-yilgi Koronavirus bilan bogʻliq global pandemiya butun dunyoda murakkab vaziyatni yuzaga keltirib, jahon iqtisodiyotining deyarli barcha sohalariga taʼsir koʻrsatdi. Uning salbiy taʼsiri ayniqsa turizm sohasida salbiy aksini topdi. Shunga qaramay, Oʻzbekistonda nomerlar fondi sonining barqaror oʻsishi kuzatildi. Jumladan, 2020-yilda joylashtirish vositalari soni 3 mingta-

dan koʻproqqa oshdi. 2016-2020 yillarda Oʻzbekistondagi umumiy nomerlar fondi 18,1 mingtadan 29,2 mingtaga oshdi, umumiy oʻsish koʻrsatkichi esa 11 ming nomerga, yaʼni 1,6 baravar oshdi. Oʻsishning oʻrtacha surati yiliga 10-11 foizni tashkil qildi. Oʻtgan yillardagi oʻsish suratlaridan kelib chiqib, 2021 yilda nomerlar fondining oʻsishi 32 243 taga yetishi kutilmoqda[11].



Rasm. 2016-2021- yillarda mehmonxona nomerlar fondining oshib borishi[12]

Bundan koʻrinib turibdiki, nomerlar fondining oʻsishi yil sayin oshib bormoqda. Ushbu holatda eʼtibor qaratish lozim boʻlgan asosiy masala bu mavjud nomerlar fondining toʻlishini taʼminlash hisoblanadi.

Taʼkidlash joizki, 2019 yilda nomerlar fondi toʻlishining oʻrtacha darajasi 60 foizni tashkil qildi, bu juda yuqori koʻrsatkich hisoblanadi. Narxlar oshishini inobatga olganda esa mehmonxona biznesida yuqori rentabellik va investitsiyalar qoplanishini taʼminlash imkonini beradi. Koronavirus bilan bogʻliq jahondagi vaziyat tufayli nomerlar fondi toʻlishi yiliga oʻrtacha 10-15 foizga pasayishni qayd etdi[12].

Shunday boʻlsada, Oʻzbekiston 2020-yilgi global Pandemiya davrida 2020-yilda Oʻzbekistonga 1 mln 504 ming nafar turist kelgan boʻlib, ularga 261 mln dollarlik xizmat koʻrsatilganligi qayd etilgan boʻlib, 2021-yilda esa Oʻzbekistonga 1 mln 700 ming nafar xorijiy sayyoh tashrifini taʼminlash boʻyicha Turizmni rivojlantirish Davlat qoʻmitasi tomonidan prognoz qilingan. Shuningdek, 2020-yilda mahalliy sayyohlar soni 1,8 mlanni tashkil etgani hamda 2021-yilda esa 7,5 mln yurtdoshlarimizni sayyohlikka jalb etish koʻzda tutilgan[14]. Bundan koʻrinib turibdiki dunyoda global pandemiya davrida turizmni asosan mahalliy sayyohlar oqimini rivojlantirish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Ushbu holatda mehmonxona xiz-

matlarining mahalliy sayyohlarga moslashtirish muhim boʻlib, mehmonxona xizmatlarini koʻrsatishda mahalliy tashrif buyuruvchilarning xohish-istaklari va ehtiyojlarini hisobga olish lozim boʻladi. Har bi mehmonxona xizmatlarni koʻrsatishda xorijiy mehmonlar bilan birga, mahalliy mehmonlar uchun qulay tariflar va xizmatlarni ishlab chiqishga, mehmonlarni jalb etishda ham alohida yondashuv talab etiladi. Bu borada jahon tajribasini oʻrganish ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Sohaning oʻtgan davrdagi rivojlanish yoʻliga nazar tashlaydigan boʻlsak, yurtimizda mehmonxona xizmatlari sifatini baholaydigan yagona tizimning mavjud emasligi soha rivojidadagi asosiy toʻsiqlardan biri boʻlmoqda desak xato boʻlmaydi. Yirik va oʻrta hajmli mehmonxonalar asosan xalqaro standartlar asosida xizmat koʻrsatishga harakat qilmoqda va ular uchun butundunyoda tan olinadigan standartlar etalon vazifasini bajar-moqda. Ammo, kichik mehmonxonalar va uymehmonxonalar tizimini, ulardagi xizmatlarning standartlari borasida yagona bir oʻlchov yoki etalon yurtimizda hozircha mavjud emasligi bunday turdagi mehmonxonalarning doimiy yuksalishiga va ulardagi xizmatlar sifatini koʻtarilishiga yoʻl bermayapti. Hozirgi kunda kichik hajmli, arzon narxdagi mehmonxonalarga ehtiyoj yuqori boʻlib, mamlakatimizga tashrif burayotgan xorijlik sayyohlar va mahalliy sayyohlar tomonidan ham

mana shunday mehmonxona xizmatlariga talab ortgan.

Yuqoridagilarni hisobga olgan holda shuni aytish mumkinki, bugungi kundagi mehmonxona xizmatlarini rivojlantirishning asosiy muammolari sohani global pandemiya sharoitiga moslash-tirish hisoblanadi. Ammo, bunday holat xorijiy

davlatlar tajribasida ham kam kuzatilgan bo'lib, pandemiya sharoitida asosiy ko'rsatgichlarni saqlab qolib barqaror rivojlanishni davom ettirishning aynan andozasi mavjud emas. Shu sababdan, bunday holatda mehmonxona xizmatini rivojlantirishda har bir hudud o'z taraqqiyot yo'lini ishlab chiqishi lozim.

### **Manba va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. М.Т.Алиева Иқтисодиётни эркинлаштириш шароитида туризм хизматлари соҳасини бошқаришнинг иқтисодий жиҳатлари. (Ўзбекистон Республикаси мисолида) дис. ... иқтисодиёт фанлари доктори Т.: Самарқанд, 2020.
2. Алиева М.Т. Иқтисодиётни эркинлаштириш шароитида туризм хизматлари соҳасини бошқаришнинг иқтисодий жиҳатлари Монография. Т.: "Фан". 2013 й.
3. lieva M. T. Tourism in Uzbekistan: status, problems and prospects. Harvard Journal of Fundamental and Applied Studies, No.1. (7) (January-June). Volume VII. "Harvard University Press", 2015. - 865 p. Source Normalized Impact per Paper (SNIP): 3.538
4. Оценка текущего состояния спроса на услуги гостиничного сервиса в Республике Узбекистан и прогноз на 2021-2025 гг. // Государственный комитет Республики Узбекистан по развитию Туризма // <https://uzbektourism.uz/ru/research/index>
5. "O'zbekistonda joylashtirish vositalari sonining barqaror o'sishi kuzatilmoqda" // O'zbekiston Respublikasi Turizmni rivojlantirish Davlat qo'mitasi rasmiy sayti // <https://uzbektourism.uz/uz/newnews/view?id=1572>
6. O'zbekiston Respublikasi Turizmni rivojlantirish Davlat qo'mitasi rasmiy sayti // <https://uzbektourism.uz/uz>
7. O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlar bazasi // <https://stat.uz/uz/>
8. O'zbekiston Respublikasi o'chiqma'lumotlar portali // <https://data.gov.uz/uz/datasets/12820>
9. O'zbekiston Respublikasi qonunxujjatlarimilliy bazasi // <https://lex.uz>
10. <https://lex.uz>
11. O'zbekiston Respublikasi Turizmni rivojlantirish Davlat qo'mitasi rasmiy sayti // <https://uzbektourism.uz/uz/newnews/view?id=1572>
12. Ushbu jadval O'zbekiston Respublikasi Turizmni rivojlantirish Davlat qo'mitasi rasmiy saytidagi "O'zbekistonda joylashtirish vositalari sonining barqaror o'sishi kuzatilmoqda" maqolasidan olindi // <https://uzbektourism.uz/uz/newnews/view?id=1572>
13. O'zbekiston Respublikasi Turizmni rivojlantirish Davlat qo'mitasi rasmiy sayti // <https://uzbektourism.uz/uz/newnews/view?id=1572>
14. O'zbekiston Respublikasi Turizmni rivojlantirish Davlat qo'mitasi rasmiy sayti // <https://uzbektourism.uz/uz/newnews/view?id=1541>

**Равшанов Тўйли Гулмуродович –  
Ўзбекистон Республикаси Туризмни ривожлантириш  
давлат қўмитаси Тадбиркорлик ташаббусларини  
қўллаб-қувватлаш ва уларнинг муаммоларини ўрганиш бўлими бошлиғи,  
Туризмни ривожлантириш институти мустақил тадқиқотчиси**

### **ДУНЁ БОЗОРИДА “ҲАЛОЛ” ТУРИЗМНИНГ РИВОЖЛАНИШ ХУСУСИЯТЛАРИ**

**Аннотация:** Ушбу мақолада ислом мамлакатларининг иқтисодиётида туризм соҳасининг тутган ўрни ўрганилган. Туризм соҳасининг ривожланиши соҳалар кесимида, мақсад ва йўналишларига қараб гуруҳларга ажратилиши тадқиқ қилиб чиқилган. Ҳалол туризм бозори ҳажми, ушбу хизматлар учун мазкур мамлакатлар томонидан қилинган сарф-харажатлар ҳамда Covid-19 пандемиянинг ушбу тармоқга салбий таъсири ўрганиб чиқилган.

**Калит сўзлар:** туризм, туризм саноати, капитал, Ҳалол туризм маҳсулотлари, "Covid-19" пандемияси, Ислом ҳамкорлик ташкилоти, туризм хизматлари экспорти

### **ХАРАКТЕРИСТИКИ РАЗВИТИЯ ХАЛЯЛЬНОГО ТУРИЗМА В МИРОВОЙ ЭКОНОМИКЕ**

**Аннотация:** В статье исследуется роль развития туризма в индустрии исламских стран. Изучено, что индустрия туризма делится на группы по назначению и направлениям на сферах. Кроме того, в статье изучены объем рынка халяльного туризма, расходы исламских стран на туризм и влияние "Covid-19" на расходы населения.

**Ключевые слова:** туризм, индустрия туризма, столица, туристические продукты Халяль, пандемия Covid-19, Организация исламского сотрудничества, экспорт туристических услуг.


## CHARACTERISTICS OF DEVELOPMENT OF HALAL TOURISM IN THE WORLD ECONOMY

**Annotation:** This article examines the role of development of the tourism in the industry of Islamic countries. It is studied that the tourism industry is divided into groups according to the purpose and directions on the fields. Moreover, in the article has been studied the volume of Halal tourism market, spending's Islamic countries on tourism and impact of COVID-19 on people's expenditures.

**Keywords:** tourism, tourism industry, capital, Halal tourism products, Covid-19 pandemic, Organization of Islamic Cooperation, export of tourism services.

Жаҳон амалиётида “Ҳалол” туризм мезонлари асосида саёҳат қиладиган мусулмон сайёҳларнинг талабларидан келиб чиққан ҳолда “Ҳалол” туризм инфратузилмасини ва шарт-шароитларини, маршрутларини ва бошқа жиҳатларини йўлга қўйиш мусулмон халқлар кўп истиқомат қиладиган мамлакатлардан ташриф буюрадиган туристларнинг жалб қилишда муҳим омили ҳисобланади. Зеро дунёга машҳур “Thomson Reuters” ва “Dinar Standart” консалтинг компаниялари томони-

дан берилган маълумотларга кўра, бугунги кунда ислом мамлакатларининг иқтисодиёти ҳам, хусусан, унинг битта сектори бўлган туризм соҳаси ҳам сезиларли даражада ривожланмоқда. Масалан, 2013 йилда жаҳон миқёсида мусулмон туризм бозори 140 млрд. АҚШ долларини ташкил этиб, глобал миқёсдаги ҳажмнинг 11,5 фоизини ташкил этган бўлса, 2019 йилга келиб ушбу кўрсаткич 50 млрд. АҚШ долларидан ортиққа ўсиб 190 млрд. АҚШ долларига тенг бўлган.



1-расм. 2013-2019 йилларда ҳалол туризм бозори ҳажми, млн. АҚШ доллари[1]

Айни пайтда халқаро экспертларнинг прогнозига кўра 2026 йилга қадар бу бозорнинг ҳажми 300 млрд. АҚШ долларни ташкил этиб, 230 миллион туристларга хизмат кўрсатиши таъкидланмоқда. Ушбу кўрсаткичлар мусулмон мамлакатларидаги туризм соҳасининг ривожланиши, соҳага янги ахборот технологияларининг жалб қилиниши, соҳада фаолият олиб бораётган тадбиркорлар ва бошқа соҳа вакиллари томонидан берилган тўғри ҳамда ишончли маълумотлар, “Ҳалол” ва “Muslim-friendly” сингари қабул қилинган стандартлар жорий қилиниши ҳисобига ўсиш кутилмоқда.

Туризм бўйича мусулмон мамлакатлари бозори ҳажмининг бошқа давлатлардаги сайёҳлик бозорлари билан таққослаб ҳолатга

баҳо бериш мумкин. Хусусан, туристлар томонидан 2019 йилда мусулмон мамлакатларида 190 млрд. АҚШ доллари миқдоридagi маблағлар сарфланган бўлса, Хитойда 262,1 млрд. АҚШ доллари, АҚШда 184,2 млрд. доллар, Германияда 104,8 млрд. АҚШ доллари, Буюк Британияда эса 90,2 млрд. АҚШ доллари даражадаги маблағлар харажат қилинган. Мазкур статистик маълумотлардан Ислом фикҳи мезонларига асосланган туризм йўналишлари, стандартлари ҳамда фаолият турлари бутун дунёда сезиларли тарзда ривожланиб бормоқда. Натижада бу жараён улар билан чамбарчас боғлиқ бўлган туризм пакетларини, маршрутларини, жойлаштириш воситаларини ҳамда туризм соҳасига ёндош тармоқларнинг ривожланишига олиб келмоқда.

2019 йилда туризм хизматлари учун ривожланган мамлакатлар томонидан жами 697,5 млрд. АҚШ доллари миқдорига маблағлар сарфланган бўлиб, шундан 262,1 млрд. АҚШ доллари Хитой, 184,2 млрд. доллари АҚШ, 104,8 млрд. АҚШ доллари Германия, 90,2 млрд. АҚШ доллари Буюк Британия ҳамда 56,2 млрд. АҚШ доллари Франция ҳиссасига тўғри келган.

Туризм хизматлари экспортининг соҳалар кесими бўйича йиллик даромадларига назар ташлайдиган бўлсак, биргина меҳмонхона индустрияси ҳар йили 400-500 млрд. АҚШ доллари миқдорига даромад кўради. Глобал миқёсда шуҳрат қозонган “Inter Continental Hotels Group”, “Marriott International”, “Hilton Worldwide”, “Accor”, “Starwood Hotels & Resorts”, and “the Wyndham Hotel Group” сингари йирик меҳмонхона тармоқлари ушбу соҳа даромадларининг асосий қисмига эгаллик қилишади.

Дам олиш туризми ушбу тармоқнинг энг катта бўғинларидан бири ҳисобланади. Ушбу соҳа кунлик ҳаёт тарзи ҳамда иш фаолиятидан таътил олиб, саёҳатларни амалга оширишни назарда тутди. Таътил давомида туристлар одатда янги маданиятлар ва жойларни ўрганиш, мароқли ҳордиқ чиқариш ҳамда ўз дунёқаришларини оширишни мақсад қилишади. 2019 йилда дам олувчилар томонидан ушбу йўналишда 4,7 трлн. АҚШ доллари[2] миқдорига харажатлар қилинган.

Мазкур соҳанинг яна бир ажралмас бўғини ресторан (меҳмондўстлик) саноати бўлиб, ушбу тармоқда рақобат авж олган ва у хилма-хил кўринишга эга. Амалий жиҳатдан хусусиятига кўра ресторан (меҳмондўстлик) саноати турли гуруҳларга таснифланади, жумладан, тижорат ресторани, озиқ-овқат хизматлари ва нотижорат озиқ-овқат хизматлари сингари категорияларга бўлинади.

Мисол учун, тижорат тармоғи ушбу бозорнинг 80 фоизини ташкил этади. Миллий ресторан уюшмаси (*National Restaurant Association*) томонидан тақдим этилган статистик маълумотларга кўра, биргина АҚШда озиқ-овқат ва ичимлик савдосидан олинадиган йиллик даромадлар 600,0 млрд. АҚШ долларини ташкил этиб, 10 миллион кишини бандлигини таъминлаган.

Бизнес туризм ушбу саноатнинг яна бир муҳим тармоғи ҳисобланади. Бизнес туризми ўз ичига яхши тўланадиган иш ҳақлари, юқори тезликдаги интернет, ишлаб чиқилган кун тартибига қатъий риоя қилиш, бепул нонушта ва шу сингари бошқа хизматларни қамраб олади. Ушбу фаолиятда турли хил даражадаги халқаро учрашувлар, кўргазмалар ҳамда бизнес тадбирлар амалга оширилади. 2019 йилда бутунжаҳон бизнес туризми учун 1,28 трлн. АҚШ доллари миқдорига[3] харажатлар қилинган. Шу ўринда, мусулмон сайёҳлар томонидан 2019 йилда озиқ-овқат, фармацевтика, косметика, мода, дам олиш ҳамда соғломлаштириш мақсадларида умумий қиймати 2,02 трлн. АҚШ доллари миқдорига сарф-харажатлар амалга оширилиб, ўтган йилга нисбатан 3,2 фоиз ўсишга эришилган.

Ушбу бозорнинг яна битта ўзига хос хусусиятларидан бири унинг ўсиб боровчи аҳоли сони ҳисобланади. 2018 йилда мусулмонлар томонидан озиқ-овқат маҳсулотларини сотиб олиш ва истеъмол қилиш учун 1,13 трлн. АҚШ доллари сарфланган бўлса, ўтган йили ушбу кўрсаткич 3,1 фоизга ортиб 1,17 АҚШ долларига етди. Бутун дунёда Covid-19 пандемияси сабабли истеъмол маҳсулотларини сотиб олишда сезиларли камайиш кузатилиши экспертлар томонидан тахмин қилинсада, мусулмон мамлакатларида мазкур кўрсаткич 0,2 фоизни ташкил этиши кутилмоқда.

1-жавдал

2019 йилда Ислом ҳамкорлик ташкилотига аъзо мамлакатларга “Ҳалол” стандартларига мос бўлган озиқ-овқат маҳсулотлари экспорт қилувчи 5 та энг йирик мамлакатлар[4]

№	Мамлакатлар номи	Экспорт миқдори (млрд.доллар)
1.	Бразилия	16,2
2.	Америка Қўшма Штатлари	13,8
3.	Ҳиндистон	14,4
4.	Россия	11,9
5.	Аргентина	10,2

Мазкур бозорнинг ўзига хос яна бир хусусияти унинг ўсувчи характерга эгаллиги

билан баҳоланади. Бугунги кунда Ислом динига эътиқод қилувчи мусулмонлар сони

1,8 миллиард кишидан органлиги, улар асосан “Ҳалол” мезонларига мос бўлган озиқ-овқат ва ичимлик маҳсулотларини истеъмол қилишлар мазкур бозорнинг қанчалик катта аҳамиятга эканлигини билдиради. Халқаро ва маҳаллий бозорларда “Ҳалол” маҳсулотларга бўлган талаб йилдан-йилга ортиб бормоқда. 2019 йилда Ислом ҳамкорлик ташкилоти мамлакатлари томонидан 200,0 млрд. доллари миқдоридagi озиқ-овқат ҳамда ичимлик маҳсулотлари импорт қилинган.

Юқорида келтирилган жадвалдан ҳам кўриш мумкинки, Ислом ҳамкорлик ташкилотига аъзо мамлакатлар импорт қиладиган маҳсулотлар Шимолий ва Жанубий Америкада етиштирилган кофе, тропик мевалар, соя маҳсулотлари, шакар ҳамда бошқа қишлоқ хўжалиги маҳсулотларидан иборат. Россия Федерациясидан эса ушбу давлатларга озиқ-овқат маҳсулотлари учун ёғлар, дон ҳамда бошқа қишлоқ хўжалиги маҳсулотлари экспорт қилинган.

Бутун дунёда Covid-19 коронавирус билан боғлиқ санитария-эпидемиологик вазиятининг жиддий тус олиши ҳамда ушбу инфекциянинг қисқа муддатларда минтақалараро тарқалиши натижасида кўплаб мамлакатлар томонидан карантин ва фуқароларнинг ҳаракатлиниши бўйича чекловлар жорий этилди. Бунинг натижасида истеъмол товарлари, хизмат кўрсатиш объектлари ҳамда кўнгилочар ва дам олиш сингари хизматларга бўлган талаб кескин камайди. Жаҳон банки томонидан қилинган прогнозларга кўра, Ислом ҳамкорлик ташкилотига аъзо мамлакатларда эса ушбу кўрсаткич бошқа мамлакатлар билан солиштирилганда энг кам яъни 2,3 фоизгагина камайиши тахмин қилинмоқда.

Covid-19 пандемияси ҳам бутун дунёга озиқ-овқат ва ичимлик маҳсулотларини ишлаб чиқиш ва тақсимлашда ҳалол мезонларга амал қилиш лозимлигини кўрсатди. Пандемия шароитида кишилар ўзлари истеъмол қиладиган озиқ-овқатларга янада эҳтиёткорона ёндошиши ҳамда санитария қоидаларига қатъий амал қилиш муҳимлигига яна бир бора амин бўлинди. Шу билан бир қаторда, ушбу маҳсулотларни етказиб берувчилар ҳам мазкур шароитдан келиб чиққан ҳолда маҳ-

сулотларни онлайн палтформалар орқали сотиш, буюрмаларни қабул қилиб олиш ҳамда етказиб бериш сингари хизматларни йўлга қўйишди. Хусусан, Бирлашган Араб Амирликлари, Саудия Арабистони, Малайзия сингари давлатлар томонидан пандемия даврида мижозларга озиқ-овқат маҳсулотлари етказиб бериш учун “Kitopi”, “Jahez” ва “Deliver DXB” каби интернет платформалари шулар жумласидан.

Бутун дунёда пандемия билан боғлиқ мураккаб вазият давом этаётган бир вақтда Япониянинг “Ajinomoto Group” компанияси томонидан Малайзияда “Ҳалол” маҳсулотлар тармоғини ривожлантириш мақсадида 85 млн. АҚШ доллари миқдорида инвестиция киритди. Мазкур кўринишдаги инвестициялар йирик хорижий ва маҳаллий компаниялар томонидан Саудия Арабистони, Бирлашган Араб Амирликлари, Покистон ва бошқа мусулмон мамлакатларига ҳам кенг кўламда амалга оширилмоқда.

Мамлакатимизда истиқомат қиладиган аҳолисининг аксарият қисми Ислом динига эътиқод қилиши сабабли юртимизда ҳам “Ҳалол” туризм йўналишини ривожлантириш мақсадида:

- ушбу стандартларга мос келадиган озиқ-овқат маҳсулотларини ишлаб чиқаришни янада кенгайтириш, дунёда ушбу соҳада етакчи бўлган йирик ишлаб чиқарувчиларни юртимизга жалб этиш ҳамда “Ҳалол” стандартларига мос бўлган маҳсулотлар экспортини ошириш;

- жаҳонда пандемия билан боғлиқ мураккаб вазиятни инобатга олган ҳолда санитария талабларига жавоб берадиган озиқ-овқат маҳсулотлари ва ичимликларни онлайн буюртмалар бериш, буюртмаларни қабул қилиш ҳамда уларни етказиб бериш тизимини ўз ичига олган интернет платформаларини ташкил этиш;

- юртимизда “Ҳалол” стандартларга мос озиқ-овқат маҳсулотлари ва ичимлик ишлаб чиқарувчи “Ajinomoto Group”, “Halal Guys”, “The Organic Meat Company Ltd.” сингари йирик хорижий компанияларни жалб этиш тавсия этилади.

#### **Манба ва адабиётлар рўйхати:**

- 1.Муҳамед Батурнинг (Mohamed Battour) “Muslim Travel Behavior in Halal Tourism” мақоласи 2017 йил октябрь. ([https://www.researchgate.net/publication/320310621\\_Muslim\\_Travel\\_Behavior\\_in\\_Halal\\_Tourism](https://www.researchgate.net/publication/320310621_Muslim_Travel_Behavior_in_Halal_Tourism))
- 2.<https://www.statista.com/statistics/1093335/leisure-travel-spending-worldwide/>
- 3.<https://www.statista.com/statistics/1093295/business-travel-spending-worldwide/>
- 4.State of The Global Islamic Economy Report (2020/21), 199-120 бетлар.

5. Ўзбекистон Республикасининг “Чет эл инвестистиялари тўғрисида”ги Қонуни 30.04.1998.
6. Ўзбекистон Республикасининг “Ташқи иқтисодий фаолият тўғрисида”ги Қонуни 26.05.2000.
7. Ўзбекистон Республикасининг “Туризм тўғрисида”ги Қонуни, 2019 йил 18 июль.
8. ЎРҚ-549-сон. (Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 19.07.2019 й., 03/19/549/3446-сон)
9. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Ўзбекистон Республикасида туризмни жадал ривожлантиришга оид қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида”ги (2019 йил 5 январь, ПФ-5611-сон) Фармони.
10. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси тўғрисида”ги фармони (2017 йил 7 февраль, ПФ-4947-сон): –Т.: Адолат, 2018. –112 б.
11. Мирзиёев Ш.М. Эркин ва фаровон, демократи Узбекистон давлатини биргаликда барпо этамиз. –Т.: “Ўзбекистон”, 2016. -56 б.
12. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисга Мурожаатномаси. 22.12.2017. – Тошкент: “Ўзбекистон”, 2018. – 80 б.
13. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисга Мурожаатномаси. 28.12.2018. – Тошкент: “Ўзбекистон”, 2019. – 64 б.
14. Mohamed Battour the article of “Muslim Travel Behavior in Halal Tourism”. 2017 йил октябрь. – б. 2-7.
15. Вахабов А.В., Таджибаева Д.А., Хаджибакиев Ш.Х. Жаҳон иқтисодиёти ва халқаро иқтисодий муносабатлар: Дарслик. – Т.: Бактрия, 2015. – 584 б.
16. Вахабов А.В., Хаджибакиев Ш.Х., Мўминов Н.Г. Хорижий инвестициялар: Ўқув қўлланма. –Т.: Молия, 2010.–328 б.
17. Тўхлиев Н. Осие тараққиёт модели. –Т.: “Ўзбекистон”, 2015. – 176 бет.
18. Тўхлиев Н., Ҳақбердиев Қ., Эрмаматов Ш., Холматов Н. Ўзбекистон иқтисодиёти. Олий ўқув юртлари учун дарслик. –Т.: “Ўзбекистон”, 2018. – 488 б.
19. Содиқов З. Бозор ислохотлари ва иқтисодиётни либераллаштиришни чуқурлаштириш йўналишлари. Т.: “Ўзбекистон”, 2011. -72 б.
20. Содиқов З. Directions of national tourism development and the role of international experiences., The Light of Islam, Iss. 4, Art. 2019. 290 б.
21. www.unwto.org.
22. www.statista.com

**Хамидов Обиджон Хафизович -  
БухДУ Иқтисодиёт кафедраси иқтисодиёт фанлари доктори, доцент  
Ҳамидов Саиджон Комилович -  
БухДУ Иқтисодиёт кафедраси ўқитувчиси  
Юлдашев Феруз Исроил ўғли -  
БухДУ Иқтисодиёт ва туризм факултети II босқич магистранти**

### ЎЗБЕКИСТОНДА ТУРИСТИК ҲУДУДЛАРНИ РИВОЖЛАНТИРИШ ВА КЛАСТЕРЛАР ФАОЛИЯТИНИ КЕНГАЙТИРИШ

**Аннотация:** мазкур мақолада мамлакатимиздаги туристик зоналарни ривожлантириш ҳамда бу соҳадаги кластерлар фаолиятини кенг йўлга қўйиш бўйича амалга оширилаётган ислохотлар масаласи таҳлил этилган.

**Калит сўзлар:** туризм, кластер, инвестиция, бозор, кооперация, хусусий сектор, виза, стратегия.

### РАЗВИТИЕ ТУРИСТИЧЕСКИХ ЗОН И РАСШИРЕНИЕ КЛАСТЕРНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ В УЗБЕКИСТАНЕ

**Аннотация:** в статье анализируются проводимые реформы в развитии туристических зон в стране и продуктивном создании кластеров в этой сфере.

**Ключевые слова:** туризм, кластер, инвестиции, рынок, сотрудничество, частный сектор, виза, стратегия.

### DEVELOPMENT OF TOURIST ZONES AND EXPANDING CLUSTER ACTIVITIES IN UZBEKISTAN

**Annotation:** this article analyzes the ongoing reforms in the development of tourism zones in the country and the productive establishment of clusters in this area.

**Keywords:** tourism, cluster, investment, market, cooperation, private sector, visa, strategy.

**Қириш.** Бугунги кунда жаҳонда туризм соҳаси самарали механизмга эга кўп укладли иқтисодиётни таъминлаш учун асосий элемент ва мамлакат бюджетига йўналтирилиши мумкин бўлган катта даромад манбаи сифатида иқтисодчи олимлар томонидан илмий ада-

биётларда эътироф этилган. Ривожланаётган мамлакатларда, гарчи туризм соҳасидаги потенциал юқори бўлсада, туризм саноатини ривожлантиришда қатор муаммоларнинг мавжудлиги кўзга ташланмоқда. Тадқиқот натижаларига кўра, сўнгги 50 йил мобайнида,